

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING “TOLIBON 2.0” HUKUMATIGA
NISBATAN TASHQI SIYOSIY YONDASHUVLARI

Suhrob Bo‘ronov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘onistonda qayta o‘rnatilgan “Tolibon” hukumatiga nisbatan tashqi siyosiy qarashlari tadqiq etilgan. Unda Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy yondashuvlari 3 guruhga taqsimlab tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. “Tolibon 2.0”, yumshoq kuch diplomatiyasi, TAPN, TAP, Katta va Kichik Pomir, CASA-1000, ShHT, KXShT.

Аннотация. В статье рассматриваются внешнеполитические взгляды государств Центральной Азии на восстановленное правительство Талибана в Афганистане. Анализируются внешнеполитические подходы государств Центральной Азии, которые подразделяются на три группы.

Ключевые слова. «Талибан 2.0», ТАПИ, ТАП, дипломатия мягкой силы, Большой и Малый Памир, ШОС, ОДКБ.

Abstract. This article examines the foreign policy views of Central Asian states towards the re-established Taliban government in Afghanistan. It analyzes the foreign policy approaches of Central Asian states by dividing them into three groups.

Keywords. “Taliban 2.0”, Soft Power Diplomacy, TAPI, TAP, Big and Small Pamirs, CASA-1000, SCO, CSTO.

Kirish. Bugungi kunda global xavfsizlikka nisbatan kuchli ishonchsizlik inqirozi hukm surmoqda. Buning asosiy sabablari yirik davlatlar tomonidan yangi dunyo tartibotini qaytadan belgilash, xalqaro huquq me‘yorlariga amal qilmaslik va urush yoki qurolli hujum qilishni so‘nggi va muammoni hal etuvchi chora vositasi sifatida qabul qilinayotgani bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, AQSh harbiy kuchlarining Afg‘oniston hududidan rasman chiqib ketishi, Rossiyaning Ukraina hududiga bostirib kirishi hamda Yaqin Sharqning G‘azo sektorida Isroil tomonidan amalga oshirilgan

xunrezliklar – bularning barchasi xavfsizlikka nisbatan yondashuvlarni qaytadan ko‘rib chiqish zaruratini taqozo etmoqda. Shunday murakkab geosiyosiy transformatsiya sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlikni ta‘minlashning yangicha yondashuvlariga e‘tibor qaratishi zarur bo‘lmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimi qo‘shni Afg‘onistonda “Tolibon” hokimiyatining qaytadan o‘rnatilish hodisasi natijasida yangi davrni boshlab berdi.

Asosiy qism. 2021-yil 15-avgustdan e‘tiboran Ashraf G‘ani rahbarligidagi Kobul hukumatining qulashi va nazoratning “Tolibon” harakati qo‘liga o‘tishi, shuningdek, avgust oyi oxirlarida AQSh harbiy kuchlarining Afg‘oniston hududini rasman tark etishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘onistondagi vaziyatga nisbatan o‘z yondashuvlarini qaytadan ko‘rib chiqishiga to‘g‘ri keldi. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari oldida o‘ziga xos dilemma vujudga kelib, “Tolibon 2.0” hukumatining o‘rnatilishi, bir tomondan, imkoniyatlar manbasi sifatida, boshqa tomondan, milliy xavfsizlikka tahdid sifatida qaray boshlandi. Ana shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo davlatlarining “Tolibon 2.0”ga nisbatan yondashuvlari va aloqalarini turli darajasidan kelib chiqib 3 ta qismga ajratish mumkin. Bular “Tolibon 2.0” hukumati bilan izchil, faol va yuqori darajada muloqot o‘rnatgan davlatlar (O‘zbekiston va Turkmaniston), o‘rta darajadagi muloqotni yo‘lga qo‘ygan davlatlar (Qozog‘iston va Qirg‘iziston) hamda “Tolibon” bilan deyarli muloqotga kirishmagan va Afg‘onistondagi joriy holatni xavfsizlikka tahdid sifatida baholayotgan Tojikiston tomoni.

O‘zbekiston va Turkmaniston. Markaziy Osiyoning ushbu ikki davlatlari “Tolibon 2.0” bilan yuqori darajada faol aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekiston va Turkmaniston nafaqat Afg‘onistonga bevosita chegaradosh qo‘shni davlatlar sifatida, balki Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog‘lashga oid tashabbuslari bilan alohida ajralib turuvchi yaqin hamkorlar sifatida ham “Tolibon 2.0” hokimiyati bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Tahlilchi Sa‘diy Yusufiy Turkmaniston siyosatini “neytral va “Tolibon”ga nisbatan ijobiy”, O‘zbekistonning tashqi siyosiy yondashuviga esa “pragmatizmga asoslangan” deb baho beradi[1].

O‘zbekiston “Tolibon 2.0” hukumati bilan muntazam siyosiy aloqalarni amalga oshirayotgan Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi eng faol davlatlardan biri hisoblanadi. Garchi O‘zbekiston “Tolibon 2.0” hukumatini hozirgi vaqtgacha rasman tan olmagan bo‘lsa-da, yuqori darajada diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Chunonchi, bugungi kunda “Tolibon 2.0” hukumati tomonidan tayinlangan vakil

Afg‘onistonning Toshkentdagi diplomatik vakolatxonasiga rahbarlik qilmoqda. Ikki tomonlama siyosiy aloqalarning yuqori bosqichi hukumat rahbarlari darajasiga qadar davom etib kelmoqda. Xususan, 2024-yil avgust oyida O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi delegatsiya Kobulga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Kobul shahrida Afg‘oniston Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Abdul G‘ani Barodar, Bosh vazirning ma‘muriy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Abdul Salom Xanafiy, Bosh vazirning siyosiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Abdul Kabir va Tashqi ishlar vaziri Amir Xon Mutakiy bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazildi. Unda davlatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar do‘stlik, hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangani, O‘zbekiston Afg‘onistonga Markaziy Osiyoning uzviy va ajralmas qismi sifatida qarashi qayd etildi. Shu ma‘noda, O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib Afg‘onistonning Muvaqqat hukumati bilan konstruktiv va o‘zaro maqbul muloqotni yo‘lga qo‘ygan. Uchrashuvlarda ana shu tamoyillar asosida Afg‘oniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirish, energetika sohasidagi samarali hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish, mis, temir, neft-gaz konlarini birgalikda o‘zlashtirish loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, transport-logistika, qishloq va suv xo‘jaligi, ta‘lim, hududlararo munosabatlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan atroflicha fikr almashildi[2]. Bu tashrif orqali O‘zbekiston delegatsiyasi shu vaqtgacha “Tolibon” boshqaruvidagi Afg‘onistonga Bosh vazir maqomida tashrif buyurgan birinchi rasmiy davlatga aylandi.

Realizm va pragmatizm. Shavkat Mirziyovning O‘zbekiston Prezidenti sifatida saylanishi natijasida O‘zbekiston tashqi siyosatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasining qo‘shni mamlakatlari bilan olib borilgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat tamoyillari Afg‘onistonga oid siyosatda ham o‘z aksini topdi. Jumladan, Afg‘onistonga milliy va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid sifatida emas, balki strategik imkoniyatlar manbayi sifatida qarash yondashuvi ishlab chiqildi. Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bunday qarashni o‘zida mujassam etadi: “Biz endi Afg‘onistonga uning hududidan tinchlik va barqarorlikka tahdid solmaydigan davlat sifatida qaray boshlashimiz kerak. Afg‘oniston – bizning do‘stona hamkorimiz va qo‘shnimizdir[3]”.

Markaziy va Janubiy Osiyo bog‘liqligi konsepsiyasi. Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bir-biridan ajratuvchi tahdidlar makoni emas, balki ularni bog‘lab turuvchi imkoniyatlar ko‘prigiga aylanishi lozim. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Boburiylar davrida Afg‘oniston hududidan 12 ta savdo karvonlarining yo‘laklari o‘tgan

ekan. Afsuski, ushbu zamindagi uzoq yillik urush ikki mintaqani ma'lum vaqtlar mobaynida bir-biridan ajratib yubordi. Garchi Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining tarixiy bog'liqligini tiklash yondashuvi avvaldan mavjud bo'lsa ham uni bugungi zamon voqeliklaridan kelib chiqib amaliyotga tadbiiq etish zarurati paydo bo'ldi. Shu maqsadda O'zbekiston tashabbusi bilan 2021-yilda “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusida Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu konseptual yondashuvning ahamiyati va zarurati haqida shunday ta'kidlaydi: “Bugungi kunda dunyo turli tahdidlar, shu bilan birga, yangi imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan global geosiyosiy o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi. Shunday murakkab sharoitda qariyb ikki milliard aholi yashaydigan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqalarni qayta tiklash muhim hayotiy zarurat va tabiiy jarayonga aylanmoqda. Ikki mintaqqa tez rivojlanayotgan makon hisoblanib, O'zbekiston tashabbusi mintaqalararo aloqadorlikni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha strategik loyihadir. Biz Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqaviy o'zaro bog'liqligining tarixiy, ilmiy, adabiy, diniy, sivilizatsiyaviy mezonlari bo'yicha o'ziga xos mutlaqo yangi konsepsiyani taklif etdik. Konsepsiya mintaqalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yangi geosiyosiy, geoiqtisodiy va geosivilizatsiyaviy asoslari va yondashuvlarini o'zida mujassam etadi”[4].

Yumshoq kuch diplomatiyasi (Soft Power diplomacy). Nazarimizda, Toshkentning “Tolibon”ga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvlari mazmun-mohiyatida yumshoq kuch diplomatiyasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Mazkur yumshoq kuch diplomatiyasining 2 ta muhim yo'nalishini misol sifatida keltirish mumkin.

1. Madaniy-gumanitar yo'nalish. Birinchi navbatda, “O'zbekiston-Afg'oniston” do'stlik jamiyatining tashkil etilishi mazkur vositaning yorqin misolidir. Do'stlik jamiyati raisi, professor A.Mannonov ta'kidlaganidek, “O'zbekiston-Afg'oniston” do'stlik jamiyatining ochilishi tarixiy voqea bo'lib, shu vaqtga qadar ikki davlatlar tarixida Afg'oniston bilan do'stlik aloqalarni o'rnatishga yordamlashadigan jamiyat mavjud bo'lmagan edi[5]. Shuningdek, 2018-yildan buyon Termizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazi malakali kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi qaroriga ko'ra, Afg'oniston fuqarolarini O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida grant asosida magistratura va doktoranturada (PhD) o'qitish uchun kvotalar ajratish, Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazida tadbirkorlik asoslari yo'nalishini tashkil etish, shu bilan

birga, ikki mamlakat ilm-fan va madaniyat arboblarning yubileylarini nishonlash singari chora-tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan[6]. O'z navbatida, O'zbekiston “Tolibon 2.0” hukumati bilan yangi yo'nalishda, ya'ni ilgari kuzatilmagan diniy sohada hamkorlikni yo'lga qo'ygani e'tiborga molik. Jumladan, O'zbekiston Mozori Sharifda qiymati 6 mln dollarga baholanadigan “Imom Buxoriy” madrasasini bunyod etishi rejalashtirilgan. Bizningcha, mazkur madrasa quyidagi jihatlari bilan ahamiyatli:

Birinchidan, madrasaning “Imom Buxoriy” nomiga atab qo'yilishi bejizga emas va o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Afg'onistonda to'g'ri yo'ldan adashganlar hali ham ko'p ekanligi hisobga olinsa, dinimizning sof va ezgu mohiyatini to'g'ri tushuntirish va targ'ib etishda bu madrasa o'ziga xos mayoq vazifani bajarishi mumkin. Shu o'rinda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini eslatib o'tish o'rinlidir: “O'zbekiston terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida hamisha prinsipial pozitsiyaga ega bo'lib kelgan. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa yoshlar o'rtasida, zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim. Biz barcha xorijlik hamkorlarimizga islom dinining insonparvarlik mohiyatini aholi va ayniqsa, yoshlarga tushuntirish yo'lida yaqin hamkorlikda ish olib borishni taklif etamiz. O'ylaymanki, bu borada O'zbekistonda tashkil etilgan Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi va O'zbekiston Islom akademiyasining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi”[7].

Ikkinchidan, e'tibor qaratganda, bu madrasa Afg'onistonning Mozori Sharif shahrida qurilmoqda. U yerda millionlab o'zbeklar istiqomat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, madrasadagi o'quv jarayonlari o'zbek mutaxassisleri tomonidan olib boriladi va ta'lim-u tahsil aynan o'zbek tilida o'qitiladi. Bu ularning nafaqat ijtimoiy-psixologik, dunyoviy, balki diniy-siyosiy dunyoqarashini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda, bu madrasaga ajratilgan mablag'larni Afg'onistondagi o'zbek vatandoshlariga kiritilayotgan sarmoya sifatida ham baholash lozim[8].

Uchinchidan, “Tolibon” bilan diniy sohadagi hamkorlik yoki yaqinlik ularning diniy maslaklari, mafkuraviy ta'limoti va bo'lg'usi rejalari haqida kerakli ma'lumotlarni aniqlashga va shu asosida strategiya ishlab chiqishga yaqindan yordam berishi mumkin.

2. Savdo-iqtisodiy yo'nalish O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha yumshoq kuch diplomatiyasining har tomonlama manfaatli vositalari hisoblanadi. Ikki davlat

o‘rtasidagi savdo aylanmasining so‘nggi yillarda o‘shish dinamikasi yuqori ekanligi fikrimizni tasdiqlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Statistika agentligining hisob-kitoblariga ko‘ra, o‘zaro savdo aylanmasi 2022-yilda 688,8 mln dollar, 2023-yilda 784,1 mln dollar va 2024-yil yanvar-noyabr oylari bo‘yicha 999,9 mln dollarni tashkil etgan[9]. 2025-yil yanvar oyining o‘zida O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo aylanmasi 153,7 million dollarni tashkil etdi va bu 2024-yilning xuddi shu davridagi (46,3 million dollar) ko‘rsatkichdan 231 foizga ko‘pdir[10]. Yaqin istiqbolda ikki davlat savdo aylanmasini 3 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shu boisdan O‘zbekiston bugungi kunda Afg‘onistonga sarmoya kirituvchi muhim davlatlardan biriga aylanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida imzolangan qiymati 1 mlrd dollarlik shartnomaga ko‘ra, O‘zbekiston 10 yil davomida Jauzjon va Faryob viloyatlaridagi To‘ti Maydon gaz konini qayta ishlashda ishtirok etadi. Bu singari savdo-iqtisodiy vositalarni amalga oshirishda Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan Termiz xalqaro savdo markazi juda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu savdo markazi Afg‘oniston bilan hamkorlik qiluvchi turli tadbirkorlarga, ayniqsa, afg‘on tadbirkorlariga xizmat qiluvchi Markaziy Osiyodagi birinchi savdo zonasi hisoblanadi. Savdo markazida doimiy faoliyat yuritadigan ko‘rgazma-yarmarkalar, O‘zbekiston-Afg‘oniston biznes maktabi, Afg‘oniston fuqarolari bo‘lgan bemorlarga davolanish va tibbiy yordam olish uchun tibbiyot klinikasi, mehmonxona, qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, multivalyuta tizimi va umuman, tadbirkorlar emin-erkin savdo qilishga imkon beruvchi boshqa shart-sharoitlar yaratilgan.

Umuman, O‘zbekiston tashqi siyosatining “Tolibon 2.0” hukumatiga nisbatan yondashuvi Afg‘oniston o‘lkasini tahdidlar tug‘diruvchi makon sifatida emas, balki foydalanilmagan imkoniyatlar omili sifatida qarashga asoslangan.

Turkmaniston ham “Tolibon 2.0” hukumati bilan faol hamkorlik qilib kelayotgan Markaziy Osiyo davlatlari qatoridan o‘rin olgan. Avvalgi boblarda Ashxobodning “Tolibon” harakatining Afg‘onistonda hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq geoiqtisodiy manfaatlari haqida batafsil to‘xtalgan edik. Aynan mana shu manfaatlarni amalga oshirish “Tolibon 2.0” hukumati davriga kelib, yanada kuchayganini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, TAPH (Turkmaniston-Afg‘oniston-Pokiston-Hindiston) gaz quvuri loyihasini ishga tushirish Turkmanistonning Afg‘oniston bilan bog‘liq strategik manfaatlarida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, turkman gaz resurslarini Afg‘oniston orqali Pokistonga o‘tkazishga qaratilgan loyiha yangilik emas. XX asrning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 06. June 2025

90-yillari boshlari va o‘rtalaridan e‘tiboran, transafg‘on gaz loyihasini ishga tushirish Afg‘onistonda “Tolibon” harakati paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biriga aylangan edi. 2021-yildan keyin esa bunday imkoniyat qaytadan shakllana boshladi. 2014-yilda TAPH gaz quvurini qurishning qiymati 10 mlrd dollarga baholangan. 2018-yildan qurilish ishlari boshlangan bo‘lsa-da, Afg‘onistondagi xavfsizlik holati va geosiyosiy raqobat sababli loyiha to‘xtab qolgan edi. O‘zbekistonlik olim S.Adilxodjayeva o‘sha yillarda Afg‘oniston shimoliy viloyatlaridagi xavfsizlik va geosiyosiy holatni quyidagicha izohlaydi: “Toliblarni Saudiya Arabistonining bir qator kuchlari moliyalashtirmoqda. “Islom davlati” guruhi esa Turkmanistondan Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga gaz quvuri o‘tkazilishiga butunlay qarshi bo‘lgan Qatar gaz biznes vakillari tomonidan moliyalashtirilmogda, chunki aynan ular Pokiston, Hindiston va Xitoyga gaz eksport qilishda asosiy ta‘minotchilardir. Bu vakillar “TAPI” gaz quvuri qurilish loyihasidan manfaatdor emas, boisi bu loyiha ularning yuqorida keltirilgan davlatlarga gaz eksport qilish monopoliyasidagi yetakchiligiga barham beradi”[11]. Biroq, bugungi kunga kelib vaziyat biroz o‘zgargan. Hozirda Ashxobod va “Tolibon 2.0” hukumatlari ushbu loyihani tezda ishga tushirish uchun astoydil harakat qilishmogda. Chunonchi, 2024-yil 11-sentyabr kuni Afg‘oniston va Pokiston chegarasida TAPH gaz quvuri loyihasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Marosimda Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Turkmaniston Milliy Kengashi Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Afg‘oniston Muvaqqat hukumati raisi (Bosh vazir) Mulla Hasan Oxundning bevosita ishtirok etishi, birinchidan, har ikki tomon uchun ushbu gaz quvuri loyihasining strategik ahamiyatini ko‘rsatib bersa, ikkinchidan, Ashxobodning “Tolibon 2.0” hokimiyatiga nisbatan tutgan pozitsiyasini ham yaqqol ifoda etishga misol bo‘ladi. O‘sha kunning o‘zida ikki tomon chegarasida 177 km.lik “Serxetobod-Turg‘undi” temir yo‘l magistralining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi[12]. Marosimda so‘z olgan Mulla Hasan Oxund “biz bu kunni yillar davomida kutgan edik”, degan bo‘lsa, Serdar Berdimuhamedov “ushbu loyihalar nafaqat Turkmaniston va Afg‘oniston xalqlari, balki mintaqa davlatlari uchun ham foydali” ekanligini ma‘lum qildi[13]. Shuningdek, Turkmaniston TAP (Turkmaniston-Afg‘oniston-Pokiston) elektr energiyasi loyihasini ham amalga oshirish tashabbusini ilgari surgan. Ammo, o‘tkazilgan tahlillar Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara xavfsizligining doimiy barqaror emasligi, Hindistonning ushbu loyihaga jiddiy qiziqish bildirmasligi, lohiyani moliyalashtirish, xavfsizlik va geosiyosiy omillar TAPH loyihasining kelajagi noaniq ekanligidan dalolat bermoqda.

Ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlar orasida Turkmanistonning avvaldan “Tolibon” bilan juda yaqin aloqalarga ega bo’lgani nafaqat bu singari loyihalarni ikkilanmasdan ilgari surishiga, balki pirovardida “toliblar”dan xavfsizlik masalasida kafolat olishga ham imkoniyat tug’dirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Ashxobodning “Tolibon 2.0” bilan bog‘liq manfaatlarini transport-energetika lohiyalarini amalga oshirish orqali bir vaqtning o‘zida milliy xavfsizlik kafolatini ham olishga qaratilgan o‘ziga xos tashqi siyosiy yondashuv sifatida baholash mumkin.

Umuman, O‘zbekiston va Turkmaniston hozirgi kunda Markaziy va Janubiy Osiyoni turli transport-logistika, energetika va boshqa loyihalar vositasida bog‘lashga qaratilgan manfaatlarini sababli “Tolibon 2.0” hukumati bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Qozog‘iston va Qirg‘iziston. Markaziy Osiyoning mazkur ikki davlatlari Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh emas. Amaldagi “Tolibon 2.0” hukumati bilan mintaqaviy aloqalarning faollashish tendensiyasini Qozog‘iston ham, Qirg‘iziston ham diqqat bilan kuzatib bormoqda. Shu sababdan ularning “Tolibon 2.0” hukumatiga nisbatan yondashuvlari asosan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, ushbu ikki davlatning Afg‘oniston bo‘yicha bugungi tashqi siyosati kun tartibida xavfsizlik omili avvalgidek birinchi darajali masala sifatida deyarli muhokama qilinmaydi. Qozog‘istonning 2024-yil iyunda[14], Qirg‘izistonning esa 2024-yil sentyabrda[15] “Tolibon” harakatini terroristik tashkilot ro‘yxatidan chiqarish to‘g‘risidagi qarori buning yorqin timsoli hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, “Tolibon 2.0” hokimiyatining dastlabki yillarida Qozog‘iston Afg‘onistondagi vaziyatni vazminlik bilan kuzatdi. Shunday paytda mintaqa davlatlari orasidan O‘zbekiston va Turkmaniston Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlariga jalb qilish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab turganda Qozog‘iston bunga juda shoshilmadi. Chunki, yuqorida tilga olingan ikki chegaradosh davlatdan farqli o‘laroq, Qozog‘iston iqtisodiy jihatdan janubiy yo‘lga u qadar bog‘liq emas. Toshkent va Ashxobod uchun Janubiy Osiyodagi dengiz portlari va bozorlariga chiqish o‘ta muhim, Ostona uchun esa an’anaviy asosiy tranzit yo‘li Yevropa – Xitoy hisoblanadi[16]. Ammo, Rossiyaning Ukraina bilan urush olib borishi va G‘arb davlatlari tomonidan Rossiya iqtisodiyotiga qarshi sanksiyalar joriy qilinishi Qozog‘istonni muqobil savdo-transport yo‘llarini izlashga majbur etdi. Qolaversa, Afg‘onistonning tranzit salohiyatini ishga tushishi Qozog‘iston iqtisodiyoti uchun

qo‘shimcha keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu sababdan, Ostonaning “Tolibon” rahbarligidagi Afg‘onistondan kutilgan manfaatlari Janubiy Osiyo bozorlariga chiqishda uning tranzit sifatidagi maqomidan foydalanish maqsadlari orqali yanada kuchaya boshladi. Tadqiqotchi I.G‘afforovning yozishicha, Qozog‘istonning Afg‘oniston bo‘yicha siyosati 2 ta omilga asoslanadi:

1. Bozor nuqtasi. Qozog‘iston hozirda Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg‘onistonning oziq-ovqat bankiga aylangan. Rossiyaning Ukrainadagi urush bilan ovora bo‘lishi Qozog‘istonni mintaqa va Afg‘onistondagi iqtisodiy ishtirokini tezlik bilan mustahkamlashga undadi. Misol uchun, Qozog‘iston 2023-yilda Afg‘onistonga taxminan 0,5 mln tonna bug‘doy eksport qildi. Xuddi shu yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 1 mlrd dollarga yetdi. Tomonlar yaqin istiqbolda bu raqamni 3 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirilgan.

2. Tranzit koridori. Ukraina inqirozi kuchayib borishi fonida Ostona Rossiyaga bo‘lgan savdo-iqtisodiy qaramligidan uzoqlashishga harakat qilmoqda. Binobarin, Qozog‘iston Afg‘onistonga Janubiy Osiyo dengiz portlariga chiqish uchun yangi logistika yo‘li sifatida qaraydi. Ostona Afg‘oniston bilan O‘zbekistondan ko‘ra Turkmaniston orqali hamkorlik qilishga ko‘proq moyil bo‘lganligi sababli Transafg‘on yo‘lagi loyahasini moliyalashtirishda ma‘lum bir beqarorlik vujudga kelishi mumkin. Shunday qilib, Ostona Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlariga bog‘liqligini minimallashtirgan holda imkoni boricha ko‘proq savdo va logistika yo‘nalishlariga ega bo‘lishni maqsad qilgan[17].

Qirg‘iziston Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh emas va Afg‘oniston bilan bog‘liq juda yirik mintaqaviy loyihalar tashabbusini ilgari surmaydi. Ammo, Qirg‘izistonning hozirgi tashqi siyosiy yondashuvlari Afg‘onistonda rahbarlik qilayotgan “toliblar” hokimiyati bilan faol muloqotni saqlab qolishga asoslanadi. Bu asosan xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog‘liq. Bishkek tomonidan “Tolibon” harakatini qora ro‘yxatdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingani, bizningcha, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Bugungi kunda Qirg‘iziston o‘z tashqi siyosatida qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarini konstruktiv muloqot va o‘zaro ishonch ruhida amalga oshirmoqda. Xususan, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi ikki tomonlama chegara muammolarining birgalikda hal etilgani buning yaqqol tasdig‘i hisoblanadi. Bishkek Afg‘onistonni ham jo‘g‘rofiy jihatdan o‘ziga yaqin hudud deb hisoblashi sababli, qo‘shni davlatlar bilan ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga intilib keladi;

2. Afg'onistonning Katta va Kichik Pomir hududlarida etnik qirg'izlar jamoasi istiqomat qilib keladi. Afg'onistonlik qirg'izlarning eng jiddiy muammosi ularning Afg'oniston fuqaroligiga tegishli shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarining yo'qligidir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 nafar afg'on qirg'izlaridan faqat 14 nafari milliy passportga ega. Tabiiyki, bu ularning huquqlarini cheklaydi. Xususan, bu ularning chet elga chiqish u yoqda tursin, Afg'oniston hududida erkin harakatlanishiga to'sqinlik qiladi. Bular tarkibiga savodxonlik va ta'lim bilan bog'liq muammo ham qo'shilmogda. Bundan tashqari, tog'li hududlarda tibbiy yordam ko'rsatilmagani uchun ham o'lim darajasi yuqori. Afg'onistonlik qirg'izlarning o'limi haqidagi taxminiy ma'lumotlarning tahlili ayanchli raqamlarni ko'rsatadi: har 10 ta yangi tug'ilgan chaqaloqdan 5-6 tasi tug'ruq paytida va go'daklik davrida vafot etadi. Shuningdek, qirg'izlar jamiyati har yili 6-7 foizga qisqarayotgani taxmin qilinmogda. Aholining o'sishi esa nolga teng. Agar bu tendensiya 10-15 yil davom etsa, Afg'onistonning Pomir hududidan afg'on qirg'iz qabilalarining asta-sekin yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ladi[18]. Tabiiyki, bu holat Qirg'iziston uchun juda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov O'sh viloyatining Cho'n-Olay tumanida Pomir qirg'izlari uchun 300-400 ta uylar qurilishini ma'lum qilgan. Unga ko'ra, Pomir hududlaridan bir necha qirg'iz oilalari o'z vatanlariga qaytarilib, uy-joy va fuqarolik huquqi bilan ta'minlanadi[19]. O'z navbatida, gumanitar inqirozdan aziyat chekayotgan afg'on xalqiga Bishkek tomonidan ko'mak ko'rsatib turilishi ham yuqoridagi vaziyat bilan izohlanadi.

3. Qirg'iziston Afg'oniston bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish va ushbu o'lka orqali mintaqalararo transport-tranzit yo'laklari ochilishidan manfaatdor. Agarda Afg'oniston orqali savdo-sotiq va transport yo'nalishlari ochilsa, bu Qirg'iziston iqtisodiyoti uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Bu yerda gap birinchi navbatda CASA-1000 elektr energiyasi haqida ketmogda. Ushbu loyiha Markaziy Osiyodan Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo mintaqasiga 1000 MVt elektr uzatishga qaratilgan loyiha bo'lib, uning boshlanish nuqtasi aynan Qirg'izistondan boshlanadi. 2024-yilning boshlarida Qirg'iziston Iqtisodiyot va savdo vaziri Doniyor Amangeldiyev boshchiligidagi delegatsiyaning Kobulga tashrifi chog'ida foydali qazilma konlarini o'zlashtirish, jumladan temir rudasi va neft qazib olish masalalari, shuningdek, transport, suv va qishloq xo'jaligi, energetika, Pomirda yashovchi etnik qirg'izlarning ahvoli va u yerda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish kabi turli mavzular muhokama qilingan[20].

Umuman, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlarining “Tolibon 2.0” bilan aloqalari O‘zbekiston va Turkmanistonga nisbatan o‘rta darajada bo‘lib, ikki davlatning “toliblar” rahbarlik qilayotgan hukumatga nisbatan tutayotgan tashqi siyosiy pozitsiyasi avvalgisiga qaraganda ancha o‘zgargan.

Tojikiston. Markaziy Osiyo davlatlari ichidan faqat Tojikiston “Tolibon 2,0” hokimiyatiga nisbatan XX asrning 90-yillarida tutgan pozitsiyasini o‘zgartirmasdan kelmoqda. Hozirgi vaqtgacha “Tolibon” harakati mintaqadan faqat Tojikistonning terroristik tashkilotlari ro‘yxatidan chiqarilmagan. Qolaversa, mintaqadan aynan Tojikiston “Tolibon 2.0” hukumati bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatmagan yagona davlat bo‘lib qolmoqda. Chunki, Dushanbe Afg‘onistonda “Tolibon” harakatining hokimiyat sahnasida bo‘lishini o‘z milliy xavfsizligiga tahdid sifatida baholayotgani bilan alohida ajralib turadi. Nazarimizda, bunday yondashuv quyidagi sabablar bilan bog‘liq:

1. Diniy ekstremizm va terrorizm xavfi. Ma’lumki, Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida Afg‘oniston bilan eng katta chegaraga ega davlat hisoblanadi. Garchi Rossiyaning 201-harbiy bazasi chegarani qo‘riqlab tursa-da, XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan tarix sabog‘i, ya’ni birodarkushlik urushining qayta alanga olishi Tojikistondagi dunyoviy hokimiyat boshqaruvining keyingi taqdirini so‘roq ostida qoldirishi mumkin. Zeroki, terroristik guruhlar o‘sha vaqtlarda Afg‘onistondan tashqari qo‘shni Tojikistondagi ba’zi hududlarni o‘zlarining terrorchilik faoliyati uchun harbiy bazaga aylantirgan edi. Tojikistonlik aksariyat ekspertlarning baholashlariga ko‘ra, “Tolibon” rejimi davrida Afg‘oniston butunlay mintaqah, balki undan tashqariga ham ekstremistik mafkuralarni yoyuvchi yangi markazga aylanishi mumkin[21].

2. Afg‘onistonlik tojiklar. Bu yerda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim ma’lumot shundaki, Tojikistonda tojik millatiga mansub qancha aholi yashasa, Afg‘onistonda ham shu qadar sondagi etnik tojik jamiyati istiqomat qiladi. Hattoki, Afg‘onistondagi tojiklar Tojikistondagi tojiklardan ham ko‘proq deb taxmin qilinadi. Bu Tojikiston uchun nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Afg‘oniston bo‘yicha taniqli tojikistonlik Kosimsho Iskandarovning fikr-mulohazalariga ko‘ra, “Tolibon” harakatining qayta hokimiyatga kelishi tojik jamiyatida salbiy tarzda qabul qilindi. Tojikistondagi aholining turli qatlamlari doimiy ta’kidlanganidek, birinchi marta “toliblar”ni nafaqat Tojikiston xavfsizligiga, balki Afg‘onistonning avvalo forsiyzabon aholisiga tahdid soluvchi aksiltojik hodisasi sifatida qabul qildi”[22]. Chunki, hozirda “Tolibon 2.0” hukumatining tarkibi, viloyat rahbarlari, harbiy tuzilmalar va boshqa

yuqori turuvchi tashkilotlarning rahbarlari pushtun vakillaridan tashkil topgan. 2021-yilning 25-avgustida Pokistonning sobiq tashqi ishlar vazirini qabul qilgan Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon o‘z bayonotida quyidagicha ma’lum qilgan edi: “Ta’kidlash lozimki, “Tolibon” harakatining hokimiyatga kelishi mintaqadagi geosiyosiy jarayonlarni yanada murakkablashtirdi; Mavjud dalillar “toliblar” mamlakatdagi boshqa siyosiy kuchlarning keng ishtirokida muvaqqat o‘tish hukumatini tuzish haqidagi avvalgi va’dalaridan voz kechib, islom amirligini yaratishga hozirlik ko‘rayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi; Qo‘shni davlatning siyosiy xavfsizligi muammolarini zudlik bilan hal qilish uchun barcha milliy ozchiliklar, jumladan, mamlakat aholisining 46 foizdan ortig‘ini tashkil etuvchi Afg‘oniston tojiklari ishtirokida inklyuziv hukumat tuzish zarur; bu qo‘shni davlatdagi davlat tuzumi iroda ifodasi va mamlakatning barcha fuqarolarining pozitsiyasini hisobga olgan holda belgilanishi kerak; Tojikiston butun afg‘on xalqi, ayniqsa, uning barcha milliy ozchiliklari pozitsiyasini inobatga olmay, bu davlatda zulm va ta’qiblar bilan tuzilgan boshqa hukumatni tan olmaydi; Tojiklar Afg‘onistonning bo‘lajak hukumatida o‘zining munosib o‘rnini egallashi kerak”[22].

3. Narkotik moddalar savdosi. Tahlillarga ko‘ra, “toliblar” hokimiyatga kelishi bilan narkotik moddalar savdosi Tojikiston uchun jiddiy muammolardan biriga aylanishni boshlagan. Masalan, 2021-yilda ta’qiqlangan noqonuniy narkotiklar hajmi 2020-yilga nisbatan 69 foizga oshgan. Ya’ni 2020-yilda 2,43 tonna, 2021-yilda esa 4 tonna giyohvandlik vositalari musodara qilingan[23]. Tojikiston Prezidenti huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish agentligi direktori Samad Zafar Tag‘oyning ta’kidlashicha, 2024-yilda respublika bo‘yicha 3 tonna 96 kg. 611 gr. narkotik moddalar musodara qilingan. Bu 2023-yilga nisbatan 25 foizga (619 kg) ko‘pdir. Aniqlanishicha, musodara qilingan giyohvandlik vositalari Tojikiston hududiga asosan Afg‘onistondan olib kirilgan[24].

4. Afg‘on qochqinlari. Ushbu masala ham Tojikiston uchun muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, Tojikiston Respublikasi 1951-yilda qabul qilingan Qochoqlar huquqlari bo‘yicha Jeneva konvensiyasini ratifikatsiya qilgan Markaziy Osiyo mintaqasidagi birinchi davlatdir. Shuningdek, rasmiy Dushanbe afg‘on qochoqlarini qabul qilish bo‘yicha mintaqaning mutlaq yetakchisi hisoblanadi. Tojikistonda “qochoq” tushunchasi asosan Afg‘onistondan kirib kelgan odamlarga tegishli bo‘lib, o‘tgan 20 yil davomida mamlakatlarga kirgan qochoqlarning 98 foizini aynan afg‘onlar tashkil etgan. E’tiborli jihati shundaki, 2006-yilda Tojikistondagi afg‘on qochoqlari soni 1,5

ming atrofida bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich 4 ming nafardan oshmay kelgan edi, ammo 2021-yil oktyabrda ularning 15 mingdan oshib ketdi[25]. Tabiiyki, ushbu raqamlar Dushanbe uchun qo‘shimcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablar Tojikiston ma‘muriyatini Afg‘onistonni qutqarish bo‘yicha Milliy qarshilik jabhasi (rahbari Ahmad Mas‘ud) kabi aksil-tolibon harakatini qo‘llab-quvvatlashiga turtki bo‘ldi. Biroq, ta‘kidlash o‘rinliki, Afg‘onistondan kelishi mumkin bo‘lgan milliy xavfsizlikka nisbatan tahdidlarni Tojikistonning yakka o‘zi bartaraf eta olmaydi. Shu boisdan ham Dushanbe rahbariyati “Tolibon 2.0” hukumatiga oid o‘z tashqi siyosiy yondashuvlarini KXShT va ShHT doirasidagi terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash chora-tadbirlari doirasida ilgari surishga harakat qiladi. Bundan kelib chiqqan xulosa shuki, hozirgi davrda Tojikiston “Tolibon 2.0” hokimiyatiga nisbatan qarashlarda xavfsizlik masalasini qolgan masalalardan ko‘ra ustuvor deb hisoblab, “toliblar” boshqaruvini Tojikiston milliy xavfsizligiga tahdid sifatida baholaydi.

Xulosa. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyada kechayotgan jarayonlar Afg‘onistonda “Tolibon” harakati hokimiyatga qaytishi bilan yangicha xususiyat kasb eta boshladi. Tahlillar Markaziy Osiyo davlatlarining “Tolibon 2.0” hukumatiga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvlari o‘zaro muvofiqlashtirilgan va yakdil emasligini ko‘rsatmoqda. Ikki tomonlama munosabatlar darajasiga ko‘ra, O‘zbekiston va Turkmaniston “Tolibon 2.0” bilan yuqori darajada, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rta darajada aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsa, Tojikiston “Tolibon 2.0” hukumati bilan munosabatlar o‘rnatmagan mintaqadagi yagona davlat hisoblanadi. Shu sababdan, mintaqaning 4 ta davlati “Tolibon” boshqaruvidagi Afg‘onistonga imkoniyatlar omili sifatida qarayotgan bo‘lsa, Tojikiston XX asrning 90-yillaridagi pozitsiyasini hali o‘zgartirgani yo‘q va hali ham “Tolibon”ni mintaqaga tahdid soluvchi manba deb baholaydi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 06. June 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ризоён. Ш.Ш., Гиёсов М.Ф. Афганистан до и после возвращения Талибан. – Душанбе, Дониш. 2023. – С.322.
2. Ўзбекистон ҳукумати делегацияси Афғонистонга ташриф буюрди // Янги Ўзбекистон, 17 август 2024. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-hukumati-delegatsiyasi-afgonistonga-tashrif-buyurdi>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи // Халқ сўзи 2018 йил 28 март, № 59-60 (7017-7018).
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О‘zbekiston, 2021. – Б.371.
5. “О‘zbekiston – Afg‘oniston” do‘stlik jamiyatining taqdimoti // Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi. 18.09.2018. <http://interkomitet.uz/boshqa/o-zbekiston-afg-oniston-do-stlik-jamiyatining-taqdimoti/>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Афғонистон Ислом Республикаси билан иқтисодий ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустақамлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 12 ноябрдаги ПҚ-4892 сонли Қарори.
7. О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi, 27.03.2018. <https://www.president.uz/oz/lists/view/1601>
8. “Do‘stlaringni o‘zingga yaqin tut, dushmanlaringni yanada yaqinroq”: siyosatshunos O‘zbekiston tomonidan Afg‘onistonda qurib berilayotgan madrasa haqida fikr bildirdi. Daryo, 23.08.2024. <https://daryo.uz/PV2ACkeu>
9. О‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi. 2024-yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma’lumot // O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Statistika agentligi. – B.4.
10. Ismailov Kamol. Uzbekistan boosts economic ties with new trade house in Afghanistan's Mazar-i-Sharif // Trend News Agency, 6 March 2025. <https://en.trend.az/casia/uzbekistan/4014166.html>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 06. June 2025

11. Адилходжаева С.М. Обострение ситуации в Афганистане: новые угрозы миру и пути их предотвращения / Сравнительная политика и геополитика, 2017 Vol.8 No. 4. – С.79.
12. Торжества по случаю открытия и начала строительства объектов энергетической, транспортно-коммуникационной и логистической инфраструктуры // Туркменистон сегодня – государственное-информационное агентство Туркменистана. 11.09.2024.
<https://tdh.gov.tm/ru/post/42095/torzhestva-po-sluchayu-otkrytiya-i-nachala-stroitelstva-obektov-energeticheskoy-transportno-kommunikacionnoj-i-logisticheskoy-infrastruktury>
13. Naseer Ahmad Salehi. Practical Work on TAPI, Other Projects Begins in Afghanistan // TOLONews, 11 September 2024. <https://tolonews.com/business-190671>
14. Токаев подтвердил, что Казахстан вывел движение "Талибан" из "террористического списка" // Настоящее время, 3 июня 2024.
<https://www.currenttime.tv/a/kazakhstan-taliban/32977060.html>
15. Киргизия исключила "Талибан" из списка запрещенных организаций // ТАСС, 5 сентября 2024. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/21786469>
16. Султанмуратов Нуриддин. К вопросу о политике Казахстана по отношению к Афганистану // Всё об Афганистане, 13.02.2023.
<https://afghanistan.ru/doc/150228.html>
17. Gafarov Islomkhon. Security Situation in Afghanistan: Implications for Central Asia, Europe and Global Stability // Friedrich Naumann Foundation, Paper Series on Afghanistan. November 2024. – P.14.
18. История, быт и нынешнее положение памирских кыргызов в Афганистане // К-News, 19.04.2012. <https://knews.kg/2012/04/19/istoriya-byit-i-nyineshnee-polojenie-pamirskih-kyrgyzov-v-afganistane-foto/>
19. В Чон-Алайском районе строят городок для этнических кыргызов из Памира // 24 KG, 26 сентября 2021. https://24.kg/vlast/208368_vnbspchon-alayskom_rayone_stroyat_gorodok_dlya_etnicheskih_kyrgyzov_iznbsppamira/
20. Каримов Данияр. Кыргызстан готов развивать взаимовыгодные связи с Афганистаном // RGRU, 07.02.2024. <https://rg.ru/2024/02/07/afganskaia-ottepel.html>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 06. June 2025

21. Ризоён. Ш.Ш., Гиёсов М.Ф. Афганистан до и после возвращения Талибан. – Душанбе, Дониш. 2023. – С.172-173.
22. Искандаров Косимшо. Гуманитарная ситуация и проблемы безопасности в Афганистане после прихода к власти «Талибана» // Изменяющийся социум: Социальная структура, социальные институты и процессы. Политическая социология. Журнал «Россия и мир: научный диалог», № 2(8) Июнь 2023. – С.147.
23. Встреча с Министром иностранных дел Исламской Республики Пакистан Махдумом Шах Махмудом Курейши // Посольство Республики Таджикистан в Республике Узбекистан, 27.08.2021.
<https://mfa.tj/ru/tashkent/view/8503/vstrecha-s-ministrom-inostrannykh-del-islamskoi-respubliki-pakistan-makhдумom-shakh-makhmudom-kureishi>
24. Tajikistan says Afghan instability fueling narcotics trade boom // Eurasianet, February 18, 2022. <https://eurasianet.org/tajikistan-says-afghan-instability-fueling-narcotics-trade-boom>
25. Аслонова Нигина. Хатлонская область лидирует по изъятию наркотиков в Таджикистане // Asia-Plus, 29 июля 2024.
<https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/security/20240729/hatlonskaya-oblast-lidiruet-po-izyatiyu-narkotikov-v-tadzhikistane>
26. Ризоен Ш., Гиёсов М. Таджикистан и Афганистан: взаимоотношения до и после прихода «Талибана» во власть // Центральная Азия и Афганистан. Казахстанская институт стратегических исследований (КИСИ) при Президенте Республики Казахстан, Kazakhstan Journal of Foreign Studies. 1–2 (3–4) 2022. – С.108.

Research Science and
Innovation House